



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi VIII an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

**Toshkent
2024-yil, 26-aprel**



**GLOBAL TA'LIM VA
MILLIY METODIKA**



UO‘K:378.147(575.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Матн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to‘plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari o‘rin olgan. To‘plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o‘zbek (davlat tili) tilini o‘qitish, adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g‘oyalar kabi mavzular o‘z aksini topgan.

To‘plam ona tili, o‘zbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Mavlonova
Ped fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O‘zbek adabiyoti ta’limi” kafedrasidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

UO‘K:378.147(575.1)

deb o'ylayman. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro yozishmalari asosida dunyoga kelgan

"Sarvning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?"

Sarvdin tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak"

baytining tarixi yoki Pahlavon Muhammad nomi bilan bog'liq

"Har qayon boqsam, yuzumga ul quyoshdin nur erur,

Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur"

matla'li g'azali voqeasi, shubhasiz, o'quvchilarning Navoiy shaxsi va ijodiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Fikrlarimizga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy hayot yo'lini o'qitishda tarixiy manbalarga qanchalik ko'p va o'z o'rnida murojaat qilsak, kelajak navoiyshunoslarini yetishtirishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. El desa Navoiyni. T.: Cho'lpon, 1991
2. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1985
3. B.To'xliyev va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018
4. B.To'xliyev va boshqalar. Alisher Navoiy hayoti va ijodi(albom). – T.: Bayoz, 2013
5. O. Madayev. Navoiy suhbatlari. – T.: O'qituvchi, 2018
6. Q.Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun. – T.: O'zbekiston, 2019
7. S.Shermuxeamedova va b. Tarbiya. 4-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2020
8. Sh.Sattorov va b. Tarbiya. 9-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2020
9. Z.Mirzayeva va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022

KEYS TEXNOLOGIYASINING ADABIYOTGA KIRIB KELISHI

Munisa Qosimova

Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU o'qituvchisi
munisakosimowa77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada keys texnologiyalarining asosi bo'lgan "Case study" usulining paydo bo'lishi, qanday o'rinlarda qo'llanilishi hamda qanday ahamiyat kasb etishi haqida so'z boradi.

Abstract: In this article, the basis of case technologies is case the emergence of the study method, where it is used and how it is said that it will gain importance.

Kalit so'zlar: Garvard, case study, Suqrot, casebook, huquq, biznes, iqtisod, muammoli vaziyat, o'qitish usuli.

Keywords: Harvard, case study, Sugrot, casebook, law, business, economy, problem situation, training method.

Har bir jamiyat va zamon o'ziga yarasha pedagogik qarashlar tizimiga ega bo'ladi. Negaki muayyan zamon va makonda yashayotgan kishilarning ta'lim- tarbiya haqidagi yetakchi fikrlari, ideallari uning pedagogikasida aks etgan bo'ladi. [Yo'ldoshev, 2023: 25] Bugungi kunda o'quv faoliyatida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olishi hamda fikrini erkin bayon qila olishini rivojlantirish ta'lim oldida turgan muhim vazifardan biri hisoblanadi.

Inson umri davomida yoki ish faoliyati davomida turli xil muammolarga, vaziyatlarga duch keladi. Muammoli vaziyatga yechim bera olish, to'g'ri yo'l tanlay bilish o'sha faoliyat egasining bilimi, mahoratiga bog'liq. Muammoli vaziyatlardagi holatni o'rganuvchi va unga amaliy yechim beruvchi "case study" kelajakda vujudga keluvchi muammoli vaziyatlarning yechimini o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi texnologiya hisoblanadi. Keys texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv

guruh o’quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish. “Case study” (Keys stadi) texnologiyasi mavzuni mustaqil o’rganish, muammo mohiyatini aniqlash, o’z nuqtayi nazarini himoya qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, ma’lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish kompetensiyalarni shakllantirishiga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Bunda o’quvchilar faoliyati muammolarni hal qilish yo’llarini izlashga, murakkab vaziyatlarga taalluqli barcha fikrlarga o’z qarashlarini erkin bayon etishga yo’naltiriladi. [Kambarova, 2016: 16]

Case study usuli haqida aniqroq bilish uchun uning shakllanish tarixini o’rganmaslikning iloji yo’q. Case study birinchi marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda Ch.C. Langdell tomonidan qo’llanilgan edi. Atamaning huquq sohasidan kirib kelganligini hisobga olib yondashadigan bo’lsak, o’tmishda qiyin qarorlar, murakkab vaziyatlarga duch kelgan odam holatini o’rganish orqali qaror qabul qilingan. Masalan, jinoyatni fosh qilish uchun, jinoyat sodir etilgan holat bor detallari bilan o’rganilgan. Bu esa huquq maktablarida o’qitish usuli bo’lib xizmat qilgan. Masalan, 15 yoshli Murod ismli o’quvchi sinfdoshi Saidning shaxsiga tegadigan so’zlar bilan haqoratladi, tortishuv paytida Saidning ko’zoynagini sindirdi, telefonini zo’rlilik bilan tortib oldi. Said ertasi kuni telefonini so’rganida Murod telefonni olganligini tan olmadi. Said sudga murojaat qildi. Bu keysni o’qituvchi o’quvchilarga taqdim qiladi. O’quvchilar holatni o’rganib chiqishadi hamda qonuniy asosda yechim topishga harakat qilishadi. Keys usuli talabalarga murakkab muammoni tezda anglash, tezda oqilona yechim topish va bu yechimni boshqalarga qisqa va samarali tarzda yetkazish qobiliyatini beradi. O’quvchilarning qiziqishini uyg’otgan holda, keys usuli kasbiy masalalarga qiziqishni kuchaytiradi.

Case usuli Garvard yuridik maktabida Christopher Columbus Langdell tomonidan ilgari surilgan Suqrotiy tamoyillarga (Suqrot o’z-o’zini aks ettirish va e’tiqodlarini, taxminlarini tanqidiy tekshirishni yoqlaydi. Inson o’zining maqsadi hamda strategiyalarini muntazam ravishda so’roq qilib, o’z ustida ishlashi) asoslangan o’qitish usuli bo’lgan casebook (amaliy ish uslubiga o’xshash, AQSH huquq maktablarida asosiy o’qitish usuli hisoblanadi, huquqiy qoidalarning o’ta mavhum xulosalarini o’rganishdan ko’ra amaliy ishlar bilan shug’ullanish) usulidan rivojlandi. Casebook usuli singari, keys usuli talabalarini qiyin muammoga duch kelgan haqiqiy shaxs rolini olishga chaqiradi.

1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o’qituvchilari yuristlarning o’qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o’qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. Turli-xil vaziyatli mashqlar to’plangan ilk kitob 1921 yilda Kouplend va Garvard biznes maktabining rahbari Volas Donam homiyligida chop qilingan. Keys texnologiyasining rivojlanishida Garvard va Manchestr maktablari alohida ahamiyatga egadir, ular bir-biridan qo’llanish usullari orqali farq qiladi. Keys-stadi usuli birinchi marotaba ijtimoiy fanda Frederic le Play tomonidan 1929-yil oila byudjeti statistikasini hisoblashda qo’llangan. Keyinchalik keys-stadilar ijtimoiy fanlarda yangi nazariyalarni yaratishda sotsiologlar Barney Glaser va Anselm Strauss tomonidan 1967-yil, “asoslangan nazariyada” tadqiqot metodi sifatida qo’llanilgan. XX asarning boshlarida Garvard maktabining o’qituvchilari darslarida ma’ruza o’qish jarayonida fikrlashga undovchi masalalarni to’liq tushuntirmaganlar, bu masalarga javoblarni talabalarning o’zlari toptirishga harakat qilganlar va talabalarning bildirgan yechimlarini qayd qilib borganlar. Bu jarayon davomida turli hil muammolarni ham kiritib, talabalarni yechimlarni topishga undaganlar. XX asrning 70-80 yillariga kelib ushbu texnologiya dunyo bo’ylab keng tarqaldi. Keys-stadi texnologiyasi 1990-yillarning ikkinchi yarimda Rossiyalik mutaxassislar tomonidan ikkinchi bor o’rganila boshlandi. Iqtisodiyot sohasida olib borilayotgan keng ko’lamdagi islohatlar natijasida, zarur paytda mustaqil va to’g’ri qarorni qabul qilib, qiyin bir holatdan chiqaradigan, to’g’ri tavakkal qila biladigan iqtisodchilarga talab keskin oshdi. Buning natijasida ko’plab oliy ta’lim muassalarida o’qitilayotgan fanlarda keys texnologiyasi qo’llanila boshlandi, shuningdek, iqtisodiyot sohasiga yangi yo’nalishlar qo’shildi: menejment, marketing, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar. Ushbu yo’nalishlar orqali ta’lim sohasiga interaktiv o’qitish uslublari kirib keldi. [Rabbimova, 2022.] Hozirda aynan keys uslubida o’qitiladigan o’quv dargohlarlari ham talaygina: Garvard biznes maktabi, IESE biznes maktabi, Kolumbiya biznes maktabi, Singapur menejment universiteti, Blavatnik hukumat maktabi, INCAE biznes maktabi, Haydarobod ICFAI biznes maktabi, Acton biznes maktabi, Amsterdam Hogeschool, Osiyo menejment institute, Hindiston boshqaruv instituti, Richard Ivey biznes maktabi, Garvard universitetidagi Jon

Kennedi hukumat maktabi, Nagoya savdo va biznes universiteti qoshidagi NUCB biznes maktabi, Virjiniya universitetidagi Darden biznes maktabi, Kolumbiya jurnalistika maktabi, Mailman jamoat salomatligi maktabi, Kolumbiya universiteti.

Adabiy tahlil adabiy ta'lim tizimining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Taniqli metodist olim Q.Yo'ldoshev asardan tanlangan qismlar bo'yicha yo'naltiruvchi, obrazli hamda mufassal tahlil kabi turlari farqlanishi haqida hamda tahlilni muammoli usulda amalga oshirish haqidagi o'z qarashlarini ilgari suradi. [Yo'ldoshev, 1996: 117] Asar bilan tanishishi bilan o'quvchilarda tug'iladigan savolning o'zi muammoli o'rganish jarayonini tashkil qiladi. Tahlil jarayonidagi tortishuvlar o'quvchi faoliyatini o'rganilayotgan asar mazmuni, matn mag'zini yoritishga xizmat qilsa, muayyan samaradorlikka erishish kuzatiladi. Tahlilning bu turida savollarning afzalligi shundan iboratki, "birinchidan, o'quvchilar tahlilda qiyinchiliklarni his etadilar va uni yengishga intiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo'naltirilib, o'quvchilar umumiy masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar" [Zunnunov, 1992: 118]. Xuddi shunday, muammoli ta'lim metodlarining usullaridan biri "case study" (Keys stadi) texnologiyasi mavzuni mustaqil o'rganish, muammo mohiyatini aniqlash, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish kompetensiyalarni shakllantirishiga xizmat qilish bilan ajralib turadi. Bunda o'quvchilar faoliyati muammolarni hal qilish yo'llarini izlashga, murakkab vaziyatlarga taalluqli barcha fikrlarga o'z qarashlarini erkin bayon etishga yo'naltiriladi. [Kambarova, 2016: 16]

"Kase-stadi" – o'qitish, axborot, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va amal qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida kutilayotgan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuyidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir. Keys-stadi – amaliy vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilish asosida o'qitish usuli. [Doniyarova, 2017: 20]

Har qanday case study o'z tuzilishiga ega:

- vaziyat-muammo, badiiy asardan va hayotdan misol;
- vaziyatning konteksti – xronologik, tarix joy konteksti, harakat ishtiroklari o'ziga xosligi;
- muallif tomonidan keltirilgan izoh;
- case study texnologiyasi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami;

Qaysi turga kirishidan qat'iy nazar case study texnologiyasi o'z ichiga yuqoridagi tarkibiy qismlarni oladi. Ularning to'g'ri ketma-ketlikda, zarur qonuniyatlar asosida joylashtirilishi texnologiya samaradorligini oshiradi. Shuning uchun case study texnologiyasini ishlab chiqish boshqichlarini alohida ko'rsatib o'tishni zarur.

Shu bilan bir qatorda, case study texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlari mavjud:

- ta'lim maqsadini belgilash;
- talabalarining ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun "ma'suliyat zonasi"ni aniqlash;
- mo'ljallangan o'quv natijalariga erishishni ta'minlaydigan pedagogik vazifalarni belgilash;
- mavzuga doir ta'limiy maqsadlar tizimida casening o'rnini belgilash;
- case mavzusiga bevosita daxldor bo'lgan institutsional tizimini izlash;
- vaziyat modelini tashkil etish yoki uni tanlash;
- tavsifni yaratish;
- qo'shimcha axborotni to'plash;
- yaxlit matnni tayyorlash;
- case study texnologiyasining taqdimotini tayyorlash, munozarani tashkil etish.

Keys texnologiyasi usullari keysda tavsiflanadigan (asarga oid) aniq vaziyatni o'rganishni voqelik bilan bog'laydi, shu bilan bir qatorda o'quvchiga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va o'z yechimini topishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.T.Rabbimova. "Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi". "Pedagogs" international research journal, 2022.

2. Gary Thomas. The case: generalization, theory and phronesis in case study. – University of Birmingham, UK. Oxford Review of Education, 2010.
3. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016.
4. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
5. Yo’ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Т.: Tafakkur nashriyoti, 2023.
6. Sh.Doniyarova. Yozuvchi hayoti va ijodini o’qitishda keys-stadi metodidan foydalanish yo’llari. -T.: “Toshkent zamin ziyo”, 2017.
7. <https://casestudies.law.harvard.edu>.

ADABIYOT O’QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI YO’LGA QO’YISH

Abdulla Mahmado’stov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o’zbek tili va adabiyoti universiteti
Masofaviy ta’lim kafedrasida o’qituvchisi
abdullamahmadustov@gmail.com

Annotatsiya: Abadiylikka daxldor badiiy asar yozish bir san’at bo’lsa, uni o’qitish ham bir san’atdir. Hech bir fan millat tafakkurni adabiyotchilik o’sтира olmaydi. Shuning uchun ushbu maqola adabiyot fanining boshqa fanlar bilan fanlararo integratsiyalashgan holda o’qitish uchun amaliy ko’rsatmalar hamda adabiyot o’qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanishning nazariy qirralari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so’zlar: integratsiya, fanlararo aloqa, integratsiya turlari, integrativ dars, adabiyot, ona tili, tarix, musiqa.

Abstract: Writing a work of art related to literature is an art, and teaching it is an art. No science can grow a nation’s thinking like literature. Therefore, this article contains practical instructions for teaching literature in interdisciplinary integration with other subjects, as well as theoretical aspects of using interdisciplinary integration in literature teaching.

Keywords: integration, interdisciplinary communication, types of integration, integrative lesson, literature, mother tongue, history, music.

Adabiyot o’qitish samaradorligiga erishish hamda fanlararo integratsiyaning o’rnini belgilash kun tartibidagi dolzarb muammolardan sanaladi. Negaki olamdagi barcha narsa-hodisalar o’zaro uyg’unlik va aloqadorlikda mavjud bo’lgani kabi dunyoni o’rganishning yo’li bo’lmish ta’lim jarayonida ham barcha o’quv fanlari integrativ yo’sinda o’qitilishi zarur. Bundan adabiy ta’lim ham mustasno emas.

Ma’lumki, adabiyot fani birinchi navbatda ona tili predmeti bilan ajratib bo’lmaydigan darajada yaqin aloqadorlikda mavjud. Negaki, adabiyot so’z san’ati sifatida ona tiliga tayanadi, undan quvvat oladi. Ona tili darslarida badiiy matnlarning til xususiyatlarini adabiyot saboqlarida esa so’zlarning ma’no tovlanishlari integrativlik asosida o’rganish darslar samaradorligini oshiradi. Ona tili saboqlarini adabiy matnlar vositasida o’qitish zarur. Adabiyot darslarida olingan nazariy ma’lumotlardan ona tili darslarida foydalanish bilimning mustahkamligini ta’minlaydi. Muayyan bir predmetni o’qitishda o’rganilayotgan mavzuning tabiatidan kelib chiqqan holda boshqa o’quv fanlari bilan turli darajada integratsiya amalga oshiriladi. Mutaxassislarining ta’kidlashlaricha, o’quv fanlari o’zaro aloqadorlik darajasi bo’yicha a) bir tomonlama: b) ikki tomonlama: d) ko’p tomonlama integratsiyalanishi mumkin. Bir tomonlama integratsiyalanishda bir xildagi o’quv fanlaridagi mavzuni yoritishga xizmat qilishi mumkin bo’lgan jihatlardan foydalanish kerak bo’ladi. Masalan, adabiyot sabog’idagi biror mavzuni o’rgatishda qozoq yoki qoraqalpoq adabiyotidagi ayni shunga o’xshash mavzudan foydalanilsa, bir tomonlama integratsiya yuzaga keladi. Agar adabiyot sabog’idagi biror mavzuni o’rgatishda ona tili, tarix yoki jug’rofiya fanlaridan biriga doir ma’lumotlar ishlatilsa ikki tomonlama integratsiya paydo bo’ladi. Bordi-yu, adabiyot darsidagi qaysidir mavzuni yoritishda ikkitadan ortiq fanga tegishli ma’lumotlar qo’llanilsa, ko’p tomonlama integratsiya hosil bo’ladi.

468 | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti, O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasida

Xumora Jo'raqulova. Ma'rifiy roman tematikasi (N.F. Karimov romanlari tahlili misolida)	153
Gulfiya Olimova. Xorazm "Oshiq" turkumi dostonlari hamda "Kitobi Dada Qo'rqut" eposidagi motivlarning qiyosiy o'rganilishi	155
Sayohat Arziqulova. Zamonaviy o'zbek va turk ayollar she'riyatida shakliy izlanishlar	158
Til va adabiyot o'qitish muammolari: yechim va takliflar	163
Shahlo Naraliyeva. Adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasi	164
Gulnoza Jurayeva. O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'rlarning ahamiyati	166
Shahnoza Raxmonova. Alisher Navoiy fardlarini ifodali o'qitish tajribasidan (8-sinf "Adabiyot" darsligi misolida)	171
Husniddin Suyunov, Xolida Bozorova. Boburning "Boburnoma" asarini o'rganishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	172
Azamat Uralov. Ayrim metodlarni filologik ta'limda ishlatilishi	179
Mahfuza Usmanova, Shodiya Malikova. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarning og'zaki nutqini o'stirish	184
Mutallib Hazratqulov, Hulkar Boltayeva, Xurshida Qilichboyeva.	186
Grammatik qoidalarni kontekst asosida o'rgatish usullari	
Muhayyo Yo'ldosheva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida asar tahlili masalalari	190
Iroda Ishonxonova. O'rta umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini o'rganishga innovatsion yondashuv	194
Saodat Eshpulatova. Nasriy asarlarni o'rganishda interfaol metodlarning o'rni	197
Feruzaxon Karimova. Muloqotdagi nutqiy "o'yinlar" haqida	201
Saule Tajbenova. Ona tili darslarida orfografik qoidalardan foydalanish orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish	204
Akbar Ruziyev. Xususiy diskursning ayollar va erkaklar nutqidagi xususiyatlari	207
Sanobar Kuldasheva. Til ta'limida raqamli yondashuvlar	210
Surayyo Inomjonova. Adabiy ta'limda o'quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish usul va vositalari	214
Farrux Qulsaxatov. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlari	216
Nurzod Norqulov. Alisher Navoiy hayotini o'rganishda manbalardan umumli foydalanish	220
Munisa Qosimova. Keys texnologiyasining adabiyotga kirib kelishi	222
Abdulla Mahmado'stov. Adabiyot o'qitishda fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish	225
Oysuluv Musurmonkulova. To'g'ri fikrlash ezigulikni anglashdir	228

"Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani 469

Maxfuza Abdalimova. Qozoqbo'y Yo'ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari	233
Ra'no Xoliqova. 5-6-sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini o'quv topshiriqlari asosida rivojlantirish	238
Zaynab Kurbanova. Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o'qitishda nutqni rivojlantirish usullari	242
Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova. O'quvchilarda o'qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	245
Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova. O'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko'nikmalarini shakllantirish	247
Bashorat Muminova. Ish qog'ozining asosiy matni ustida ishlash	249
Intizor Jumaniyazova. Fardlar tahlili orqali o'quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish	252
Mirzabek Xolyorov. Abdulqodir Navoiy asarlarida...	257